



NAMANGAN VILOYATIDAGI MUQADDAS QADAMJOLAR VA ZIYORATGOHLAR (NAMANGAN SHAHRIDAGI MAQBARALAR VA ZIYORATGOHLAR MISOLIDA)

Turg'unov Sherzod Abduvositovich

Namangan davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Maqolada Namangan viloyati Namangan shahrida joylashgan muqaddas ziyoratgohlar va maqbaralar haqida ularning paydo bo'lish tarixi haqida, ushbu ziyoratgohlarning mahalliy aholi hayotida tutgan o'rni haqida, bugungi kunda ushbu ziyoratgohlarga bo'layotgan munosabat haqida va bu ziyoratgohlarni viloyatda ziyorat turizmini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar ; *Halifa Chaqqon chillaxonasi, Ho'ja Amin qabri majmuasi, Mulla Bozor Ohund maqbarasi, Yahyoxon to'ra Namangoniy ziyoratgohi, Bo'stonbuva ziyoratgohi, O'n bir Ahmad ziyoratgohi*

Аннотация: *В статье представлена информация о гробницах и сакральных святынях Наманганского города Наманганской области, истории их возникновения, роли этих святынь в жизни местного населения, отношении к этим святыням сегодня и значении этих святынь в развитии паломнического туризма в регион.*


Ключевые слова : *Мавзолей Халифа Чаккан, Комплекс гробниц Хужа Аминя, Мавзолей Мулла Бозор Охунда, Храм Якяхан тора, Храм Бустан бува, Храм Ун бир Ахмада.*

Annotation : *The article provides information about the history of the holy shrines and tombs in Namangan city, Namangan region, the role of these shrines in the life of the local population, the current attitude to these shrines, their importance in the development of pilgrimage tourism.*

Key words; *The Caliph's Chakkan chill, Khoja Amin tomb complex, Tomb of Mulla Bazar Oxund, The shrine of Yahya Khan Tora Namangani, The shrine of Bustan buva, The shrine of O'n bir Ahmad*

MUHOKAMALAR VA NATIJALAR

Namangan shahrida joylashgan maqbaralar va ziyoratgohlarni o'rganish jarayonida ularni deyarli katta qismi bugungi kunda davlat ro'yxatiga olinganligi shu bilan bir qatorda davlat ro'yxatiga va muhofazasiga olinmaganlari ham mavjud. Namangan shahridagi qadimiy ziyoratgohlardan biri Yangiqo'rg'on ko'chasida joylashgan Halifa chaqqon chillaxonasi bo'lib bu tarixiy ziyoratgohning paydo bo'lish tarixi XVII asrga borib taqaladi. Bu chillaxona tarixiga oid ma'lumotlar juda kam saqlangan. Bu chillaxona madaniy meros obyektlari ro'yxatiga olinmagan. XVII asrga oid yana bir ziyoratgoh Ho'jamin maqbarasi bo'lib u Namangan shahrining Ko'zagarlik ko'chasida joylashgan. XVII asrning ikkinchi yarmida bunyod etilgan





bu me'moriy obida Namangan shahrining me'moriy durdonalaridan biri hisoblanadi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha XVI asr oxirlarida mashur fiqh ulamolaridan Shayhon Tohur (asl ismi Shayh Xovandi Tohur) avlodidan bo'lgan Iminxo'ja Eshon Toshkent shahridan Namangan shahriga ko'chib kelib joylashgan. Iminho'ja Eshon ham fiqh ilmining zukko bilimdonlaridan bo'lib, xalq orasida valiyulloh sifatida nom qozongandi. Umrining qolgan qismini Namangan shahri aholisini ilm ma'rifatli qilish uchun sarflagan bu ulug' alloma namanganlik shogirdlari orasidan Mir Ho'ja Eshonni o'ziga munosib voris sifatida ko'radi. Keyinchalik Mirho'ja Eshon Iminho'ja Eshonning Yoqubho'ja ismli nabirasining qiziga uylanadi. Yoqubho'janing o'g'il farzandi yo'qligi tufayli uning merosi qizi va kuyoviga qoladi. Mirho'ja Eshon ana shu mablag'lar hisobiga qayinotasi Ibrohimho'jaga atab maqbara qurdiradi. Maqbara taxminan XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida bunyod etilgan. Bu maqbara xalq orasida "Ho'ja Amin qabri" degan nom bilan mashhur bo'lgan. Maqbara uch qismdan iborat bo'lib uning tarkibiga maqbara, madrasa, masjid kiradi. Bularning ichida asosiy inshoot maqbara hisoblanadi. Maqbaraning kirish eshigida maqbarani bunyod etgan ustaning ismi aniq harflar bilan "Amali usta Muhammad Ibrohim ibn Abdurahim" ya'ni Abdurahim o'gli usta Muhammad Ibrohim ishladi" deb yozilgan. Keyinchalik maqbara bilan yonma yon Azizho'ja Eshon madrasasi va masjidi bunyod qilingan. Sobiq sovet tuzumi davrida maqbara, masjid va madrasadan turli maqsadlarda foydalanilib deyarli qarovsiz qoldirilgan. Masalan 1990-yilgacha ushbu majmuadan rus va boshqa millat vakillariga turar joy sifatida foydalanishga berilgan. 1990-yilda masjid qayta ta'mirlanib Jome masjidi sifatida o'z faoliyatini yangidan boshladi. Bugungi kunda Ho'ja Amin maqbarasi qayta ta'mirlangan bo'lib xalq tamonidan ardoqlanuvchi muqaddas ziyoratgohga aylangan

KIRISH

O'rta Osiyo jumladan O'zbekiston xilma-xil moddiy va madaniy yodgorliklarga boy bo'lib, jahon sivilizatsiyasiga beshik bo'lib xizmat qilgan hududlardan biridir. Ajdodlarimiz tamonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilgan moddiy va madaniy boyliklar tarixning turli bosqichlarida yuz bergan urushlar va qirg'inlar natijasida harobaga aylanib bordi. Lekin ajdodlarimizning fidoiy xizmatlari tufayli bunday tarixiy durdonlarning aksariyat qismi saqlanib qolgan va bugungi kungacha yetib kelgan.

Istiqlol yillarida yurtboshimiz rahbarligida barcha sohalarda bo'lgani kabi madaniy meros obektlarini asrab avaylash ularni iloji boricha tabiiy holatda kelajak avlodga yetkazish borasida ham muhim amaliy tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Sobiq sho'rolar davrida taqiqlab sobiq sovet tuzumi davrida ta'qiqlangan diniy e'tiqod erkinligi mustaqillik yillarida yan qayta tiklanishi yurtdoshlarimiz qalbida ezgu bir niyat sifatida ardoqlab kelinayotgan ulug' bobakalonlarimiz ruhini shod etish asnosida ular dafn etilgan va muqaddas sanalgan qadamjolarini obod etish borasidagi orzularini amalga oshirish imkoniyatini yuzaga





keltirdi. Prezidentimiz Shvkat Mirziyoyev tashabbusi bilan yurtimizda ziyorat turizmini rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan muhim o'zgarishlar tahsinga sazovordir.³⁵


Namangan shahri ham barcha viloyatlar markazlari kabi viloyatning ham iqtisodiy ham madaniy markazi bo'lib hizmat qilib kelmoqda. Shahar aholisi qadimdan ilmga chanqoq bo'lib shahar aholisi orasidan ko'plab mashhur allomalar yetishib chiqqan .Masalan tasavvuf alloamalaridan Mulla Bozor Ohund ,shayh va olim Mavlaviy Mulla Xo'ja Eshon, Sulaymon to'ra Ulug'xon To'ra o'gli Nodim Namangoniy kabi ulug' hamyurtlarimiz so'zimizga misol bo'ladi.

Namangan shahrida joylashgan maqbaralardan yana biri Namangan shahrining qadimiy dahalaridan biri Labbay tog'a dahasida joylashgan Mulla Bozor Oxund maqbarasidir .Mulla Bozor Oxund XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asr boshlarida yashab o'tgan ulamolardan bo'lib ulug' donishmand va mutafakkir ,istedodli mudarris va ilohiyot ilmining bilimdonlaridan bo'lgan.Mulla Bozor Oxundning asl ismi Hoja Ubaydulloh bo'lib xalq orasida Hoja domullo, Mulla Bozor Oxund nomlari bilan mashhur bo'lgan.U boshlag'ich ta'limni uyda olgach keyinchalik Namangan shahridagi madrasalardan birida ta'limni davom ettiradi. Mulla Bozor Oxund o'sha davrda Turkistonning ilm ma'rifat markazi bo'lgan Buxoro shahriga boradi.Bu shaharda o'z davrining donishmand olimlaridan Mirzo Bahodir Buxoriydan ta'lim olib ta'lim yakunida ustozidan " Irshod xati" (Pirning yorlig'i)oladi.Keyinchalik Qashqarning Ho'tan ,Yorkent kabi shaharlarda bo'lib asli kasonlik Sulton Sayyid Jaloluddin avlodlaridan bo'lgan mashhur pir Hidoyatulloh Ofoq Xo'ja bilan tanishib bir qancha vaqt uning huzurida bo'ladi. Qashqardan Buxoroga keyin Qo'qonga va ona shhari Namanganga qaytgan Mulla Bozor Oxund Labbay to'ga mavzesidagi madrasada mudarrislik va masjidda imomlik qiladi.Mulla Bozor Ohund fiqh, hadisshunoslik, faroiz , tarix ,ruhshunoslik ilmlarini yaxshi egallagan yirik olim edi.³⁶Tarixiy manbalar guvohlik berishicha alloma yuz yildan ortiqroq umr ko'rib 1730 yilda Namanganda vafot etgan.Ulug' alloma Namangan soyining o'ng qirg'og'iga dafn etilgan va qabr ustiga maqbara bunyod etilgan. Sobiq sovet tuzumi davrida 1934- yilda maqbara va uning atrofida joylashgan madrasa buzib tashlangan va o'rniga turli binolar qurilgan.1990 yilda mahalliy aholining tashabbusi bilan dastavval masjid qurilishi boshlangan bu hayrli asli namanganlik bo'lgan bugungi kunda Saudiya Arabistonida yashayotgan Muhammad Sayyid Namangoniy o'zining hissasini qo'shadi. Biroq mablag' yetishmasligi natijasida qurilish jarayoni yakuniga yetmagan

Namangan viloyati hokimligi va Namangan shahar hokmiligi tashabbusi bilan xalqimizning tarixiy va madaniy merosini o'rganish , sobiq sovet tuzumi davrida qariyb unutilayozgan aziz va tabarruk zotlarning qabrlarini va ular atrofida bir

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 'Madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilishni tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida "gi 2018- yil 19- dekabrda PQ 4068- sonli qarori.


³⁶ Yusupov I, Mirzaaliyev E. "Namangan viloyati me'moriy obidalar sirlari". Namangan .2008 yil 13-15 betlar





vaqtlar mavjud bo'lgan xonaqox, hujralar va masjidlarni qayta tiklash va yana xalqimiz e'zozlaydigan ziyoratgohlarga aylantirish kabi hayrli ishlar amalga oshirila boshlandi. Mulla Bozor Ohund maqbarasini qaytadan qurish maqbara atrofida jome' masjidini bunyod etish ishlariga 1993 yil 14- fevralda ta'mal toshi qo'yildi. 1994 yilgacha usta Tursunboy hoji Fozilov boshchiligida me'morlar va quruvchilar tamonidan olib borilgan qurilish bunyodkorlik ishlari natijasida Mulla Bozor Oxund yodgorlik majmuasi qad rostladi. Majmuaning rasmiy ochilish marosimi 1994- yil 21 -may kuni bo'lib o'tdi. Dastlab ushbu majmua uch qismdan iborat bo'lib tarkibiga jome' masjidi, yerto'lali xonaqoh, va darvozaxonadan iborat bo'lgan. Majmuada 2020- yilda olib borilgan ta'mirlash jarayonida darvozaxona qismi buzilib uning o'rniga metal konstruksiyalardan iborat devor quriladi. Bularning ichida maqbara o'ziga hos yodgorlik hisoblanadi. Maqbara ichidagi ramziy qabrga "Hoji Ubaydulloh ibn Sulton Muhammad Bobur Qoraxon Mulla Bozor Oxund hijriy 1079 yil vafot etgan" deb yozilgan. Maqbara tashqarisida to'g'rirog'i maqbaraning shimoli -sharqiy qismida yana ikkita qabr mavjud bo'lib ma'lumotlarga ko'ra biri Mulla Bozor Oxundning ustoz va safdoshi domla Niyoz Oxund ibn Jaloliddin Zomiyning qabri bo'lsa ikkinchi ushbu hududda shahid bo'lgan kishining qabri bo'lib har ikki qabr egalarini hoki qurilish jarayonida topilgan bo'lib shu yerga dafn etilgan. Maqbaraning qirq burchakdan iborat niliy gumbaz bo'yilgan bo'lib bu aynan islom dinidagi qirq farzni bildiradi. Maqbara atrofida bunyod qilingan jome' masjidi Namangan viloyatidagi yirik masjidlardan bo'lib bir vaqtning o'zida besh ming namozxonni o'z namoz o'qishiga imkon yaratadi. Bugungi kunda Mulla Bozor Oxund majmuasi nafaqat yurtdoshlarimiz balki viloyatimizga tashrif buyurayotgan mehmonlar ziyoratga kelayotgan muqaddas maskanga aylandi.

"O'n bir Ahmad" ziyoratgohi- Namangan shahri G'irvon MFY hududida joylashgan ziyoratgoh bo'lib 1990 yilda mahalliy aholi tamonidan hashar yo'li bilan bunyod qilingan. Bu ziyoratgohning bunday atalishi islom olamining turli hududlarida turli yillarda yashab o'tgan o'n bir nafar Ahmad ismi bilan atalgan tasavvuf ilmining yirik vakillari bilan bog'liq. Bu allomalar: Ahmad Mursal, Ahmad Hanbal, Ahmadi Hayrun Nassaj, Ahmadi Arkan, Ahmadi Xizraviya, Ahmadi iya Rovanda, Ahmadi Muxtor, Ahmadi Jomiy, Ahmad Yassaviy, Ahmadi Qabr, Ahmadi Sigarlardir. Ziyoratgoh hizmatchilari bergan ma'lumotda aytilishicha ziyoratgohda mavjud bo'lgan qabrga ana shu o'n bir shayxning ta'limotlarini targ'ib qilgan shayx dafn qilingan. Lekin bu shayx haqida biror bir ma'lumot saqlanmagan. Yozma ma'lumotlar guvohlik berishicha ziyoratgohga kelgan ziyoratchilar o'n bir Ahmad nomlarini zikr etib Qur'on tilovat qilsa va savobini ushbu o'n bir Ahmad ruhiga bag'shida qilsalar va ularning pok ruhi hurmati ollohdan o'z hojatlarini so'rasalar olloh ularning hojatlarini ravo qilishiga ishonganlar. Shuning uchun ziyoratgohga kelgan ziyoratchilar ihlos bilan duo qilib ollohdan o'z dardlariga davo so'raganlar, farzand talab bo'lgan ayollar duo qilib ollohdan solih va soliha farzand tilaganlar. Uzoq safarga chiqayotganlar va safradan qaytganlar safar oldidan yoki safradan qaytgach





ziyoratgohda eli dihson o'tkazganlar va bu udum orqali hotirjamlik his qilganlar.³⁷ O'n bir Ahmad ziyoratgohi haqida ko'plab rivoyatlar saqlanib qolgan bo'lib bu rivoyatlardan birida aytilishicha ziyoratgoh o'rnida qadimda tepalik mavjud bo'lgan bo'lib uning ort tamoni sayhonlik bo'lgan. Sayhonlik o'rtasida bir tup ulkan chinor o'sgan bo'lib uning ostidan buloq suvi oqib turgan. Bu buloqdan mahalliy aholi vakillari ham musofir yo'lovchilar ham foydalanib issiq kunlarda chinor soyasida hordiq chiqarganlar. Milliy istiqlol yillarida barcha ziyoratgohlar kabi ushbu ziyoratgohda ham obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Ayniqsa keying yillarda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari natijasida ziyoratgohdagi qabr ustida ulug'vor maqbar bunyod etildi. Maqbara atrofidagi maydon turli navdagi gullar bilan ko'kalamzorlashtirildi. Aholini ziyoratgohga tashrif buyurishida qulaylik yaratish maqsadida ziyoratgoh yonidan oqib o'tgan Shimoliy Farg'ona kanaliga ko'priq qurildi. Bugungi kunda ham O'n bir Ahmad ziyoratgohi aholi ko'p tashrif buyuruvchi ziyoratgohlardan biri sifatida o'z faoliyatini davom ettirmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda Namangan shahrida mavjud bo'lgan maqbaralar va ziyoratgohlar xalqimizning ko'hna tarixining ajralmas qismi sifatida bugungi ma'naviy hayotimizda ham muhim o'rin tutib kelmoqda. Bu muqaddas maskanlarni yosh avlodni buyuk ajdodlar ruhiga hurmat ruhida tarbiyalashda ahamiyati juda katta. Bunda albatta hukumatimiz tamonidan ziyorat turizmini rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning tutgan o'rni beqiyos. Ana shunday maqbaralar va ziyoratgohlarni tarixini o'rganish va qo'lga kiritilgan natijalardan yosh avlodni ma'naviyati yetuk avlod sifatida tarbiyalashda unumli foydalanish kerak. Hali davlat ro'yxatiga va muhofazasiga olinmagan maqbaralar va ziyoratgohlarni davlat ro'yxatiga olish, hududlarini obodonlashtirish, ularni yana xalqimizning turgma'naviyat tarqatuvchi maskanlariga aylantirish oldimizda turan muhim vazifalardan hisoblanadi


REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 'Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida' 2018 -yil 19- dekabrda PQ -4068- sonli qarori. "Lex UZ" huquqiy axborot portali

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk ob'yektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidafa" 2019 -yil 4- oktabrdagi VMQ- 846-sonli qarori. "Lex UZ" huquqiy axborot portali

3. Latifa .Ahmadaliyeva ."Namangan viloyati ziyoratgohlari". Namangan. 2015 yil

³⁷ Latifa .Ahmadaliyeva ."Namangan viloyati ziyoratgohlari". Namangan 2015 yil 49-50 betlar.





4. Yusupov I, Mirzaaliyev E. “ Namangan viloyati me'moriy obidalar sirlari”.
Namangan .2008 yil

5. Yo'lchi Qosimov “ Namangan tarixidan lavhalar “ . Namangan . 1995yil

